

MILLIY QADRIYATLAR – MA’NAVIY MEROS

Oqmamatova Shaxribonu Zafarjonovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada milliy qadriyatlar haqida, bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlodning shakllanishida milliy qadriyatlarimizning o‘rni, o‘zligimiz, xalqimizning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy qadriyat, milliy madaniyat, milliy mentalitet, umuminsoniy qadriyat.

Insoniyat uchun eng buyuk bebaho boylik milliy madaniyatdir. U yoki bu millatning millat sifatida shakllanishi, farqlanishi ham milliy madaniyatga aloqadordir. Millat qachonki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan ma’naviy qurollangan bo‘lsa, madaniyatli bo‘lsa, u doimiy bo‘linmas barqaror kuchga ega bo‘ladi. “Jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig‘indisi madaniyatda gavdalanadi”¹. “Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi” (ЎзМЭ, V, 372-373). Madaniyat deganda, “millat hayotidagi ustuvor qadriyatlar bilan shartlangan mavjudlik qoidalariga ega ijtimoiy organizm tushuniladi”². “U insoniy mazmun va ma’no bilan sug‘orilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar dunyosidir”³. “Har qanday madaniyatning asosi va poydevori aynan qadriyatdir”⁴. “Turli xalqlar madaniyati turfa xil, chunki bir xil ehtiyojni qondirish maqsadida turli xalqlar turlicha harakatlarni amalga oshiradi, demakki, bu ularning dunyoni turlicha qabul qilishidan, qadriyatlari turlicha

¹Гулметов Э., Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. –Тошкент, 2000. –Б. 6.

² Малюга Ю.Я. Культурология. – М.: ИНФРА-М. 2004. – С. 11.

³ Малюга Ю.Я. Культурология. – М.: ИНФРА-М. 2004. – С.15.

⁴ Сорокин П.А. Социальная и культурная динамика. СПб., 2000. – С. 21.

ekanligidan dalolat beradi. Milliy o'ziga xoslik insonlarning ishlashi, dam olishi, ovqatlanishi, turli vaziyatlardagi muloqoti – barchasida namoyon bo'ladi"⁵.

Qadriyat – insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. "Ma'naviyat tushunchasi singari qadriyat tushunchasi ham keng bo'lib, uni har kim o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda turlicha izohlashi, ta'rif berishi mumkin. Lekin barcha holatlarda qadriyat o'zida ezgu niyatlar, maqsadlar va intilishlarni namoyon etadigan, millatning ma'naviy yetukligini ko'rsatib turadigan mezonlardan sanaladi"⁶. Insoniyat hayotiy tajribalarini, tugal xulosalarini o'zida mujassam etgan, eng ezgu tuyg'ularga boy ma'naviy-ruhiy tushunchalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bir uyda yashasak-da ertalab uyg'ongan paytimiz qo'l-yuz yuvgach o'zimizdan katta yoshdagi xonadon ahliga salom berish, yoshi ulug' kishilar oldida yurmaslik yoki navbat berilmasa, ulardan oldin gapirmaslik, ular ko'ziga tik qaramaslik, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish, nonning ushog'ini ham asrash, uni oyoq ostiga tashlamaslik, mehmonni ulug'lash va qadrlash kabilar bizga xos bo'lgan odatlardir. Jami o'zbek millatiga xos bo'lgan shu kabi odatlarimiz, udumlarimiz, an'analar-u marosimlarimiz ezgu va azaliy qadriyatlar sanaladi. Ularda bizning o'zligimiz, xalqimizga xos eng muhim xususiyatlar yorqin aks etadi.

Qadriyatlar millatning o'ziga xosligini, mentalitetini namoyon etuvchi, uning o'tmishi, buguni va kelajagini belgilab beruvchi muhim omil sanalar ekan, bu ulkan merosni asrab-avaylashimiz, uni kelajak avlodlarga bezavol yetkazishimiz zarur. Ko'p asrlik tarixga ega o'zbek xalqining shunday qadriyatlari borki, u boshqa biror xalqnikiga o'xshamaydi. Masalan, "o'zbek xalqida nabiraning ardoqlanishi ajralmas milliy xususiyat darajasiga ko'tarilgan. O'zbek tilida Danagidan mag'zi shirin maqolining yuzaga kelishiga ham shu axloqiy qadriyat sabab bo'lgan. Ma'lumki,

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. – 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2010. – С. 11.

⁶ Mamatov M.M. Etnopsixologiya. – Toshkent:1999.

mevaning ichida danagi, danagining ichida mag'zi bo'ladi. Mazkur maqolda ota-ona mevaga, farzandi uning danagiga, nabirasi esa ana shu danakning ichidagi mag'ziga o'xshatilmoqda. Bu o'xshatish vositasida o'zbek xalqida ota-ona uchun bolasidan-da nabirasi shirin va suyukli ekanligiga ishora qilinmoqda. Nabiraga nisbatan bunday umummilliy qadriyat kasb etgani bois o'zbek xalqi lisoniy manzarasida mazkur tushuncha yuzaga kelgan. Yoki Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "... ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo'lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rish mumkin. Bu, avvalo, insonning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi"⁷.

"Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"⁸. Shuning uchun "biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, ularning g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"⁹. O'zbek millatiga mansub har bir kishi o'zbek eli madaniyati uchun ahamiyatli bo'lgan madaniy qadriyatlarini, umuminsoniy mohiyat kasb etuvchi me'yorlar, qoida va an'analarni o'rganishi, ularning mohiyatini bilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Milliy mentalitetga xos turg'unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, xalqning milliy tafakkuri bilan bog'liq. Shunday ekan, u yoki bu tafakkur egasi o'zini, o'zligini hurmat qilmog'i

⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: "Маънавият", 2008. – Б. 6.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони //

<http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019>

⁹ Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. № 196 (6860). – Тошкент, 2017.

insoniylik burchidir. Boisi har bir inson millati va irqidan qat'iy nazar o'zining hamda o'zi mansub bo'lgan madaniyatning me'yorlari olamida yashaydi.

Umuminsoniy qadriyatlar davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Uning asosiy maqsadi – o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslarni, xususan, yoshlarni tarbiyalashga qaratilgandir. Yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida joriy qilingan “Besh muhim tashabbus”da, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ham milliy va umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, o'z Vataniga va xalqiga sodiqlik ruhiyatini shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan.

Ma'lumki, til millatning ruhiyati va dunyoqarashini, jamiki qoida va qadriyatini avloddan avlodga yetkazadi: tilning sohibi esa inson. U ma'lum bir urf-odat, an'ana, axloq qoidalari, muloqot madaniyati kabilarni kelajakka olib o'tayotgan ijtimoiy-madaniy guruh vakilidir. Aytmoqchimizki, asosiy vosita quroli so'z bo'lgan adabiyot orqali inson hayotida ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyatlarni yanada mukammal biladi, boy qadriyatlarga suyangan holda kamol topadi va o'zidan keyingi avlodlarga yetkazadi. Demak, badiiy va ilmiy adabiyotlar madaniy qadriyatlarni o'rganishda asosiy vositalardan biridir. Ma'naviy qadriyatlar insoniyatni barcha jonzotlardan ustun qiladi, har qanday jamiyatda insoniylikni saqlashga, uning taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan ma'naviy-madaniy qadriyatlar o'chog'i – badiiy durdonalar bilan hamnafas bo'lish lozim.

Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. To'g'ri ta'kidlanganidek, vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori,

avvalo, yoshlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir¹⁰. Bugungi tez o'zgarishlarga moyil dunyoda insonni inson sifatida yashashi uchun yuksak ma'naviyatning, milliy qadriyatlarning nechog'lik muhim hayotiy zarurat ekanligini chuqur anglamoq, ongimizni turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratmoq zarur. Hozirda ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan muammolar xalqimiz ma'naviyatini, milliy qadriyatlarini asrash va yuksaltirishga salbiy ta'sirini o'tkazadi. Har qanday muammoning oldini olish, ogohlikka oshno bo'lish – davr talabi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatov M.M. Etnopsixologiya. – Toshkent:1999.
2. Nazarova M.M. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning psixologik ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/bugungi-globallashuv-sharoitida-milliy-qadriyatlarni-ta-lim-tizimiga-tatbiq-etishning-psixologik-ahamiyati>
3. Гулметов Э., Қобилжонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. –Тошкент, 2000. –Б. 6.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – Б. 6.
5. Малюга Ю.Я. Культурология. – М.: ИНФРА-М. 2004.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология. – 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2010. – С. 11.
7. Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи. № 196 (6860). – Тошкент, 2017.

¹⁰Nazarova M.M. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning psixologik ahamiyati. <https://cyberleninka.ru/article/n/bugungi-globallashuv-sharoitida-milliy-qadriyatlarni-ta-lim-tizimiga-tatbiq-etishning-psixologik-ahamiyati>

8. Сорокин П.А. Социальная и культурная динамика. СПб., 2000. – С. 21.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // <http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019>